

**“Kapitalbank” ATB
Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi
tomonidan
2019-yil 30-dekabrda
(№ 4/2019-sonli bayonnoma)**

“TASDIQLANGAN ”

Yig‘ilish raisi

_____ M.A. Abdusamadov

**“KAPITALBANK” ATB AXBOROT SIYOSATI
TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

I. UMUMIY QOIDALAR VA ATAMALAR

1. Ushbu “Kapitalbank” ATB axborot siyosati to‘g‘risidagi Nizom (keyingi o‘rinlarda - Nizom) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi (yangi tahriri), “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) va “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-apreldagi PF-4720-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 5-iyulda 943-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000-yil 24-iyunda 472-son bilan tasdiqlangan Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2012-yil 31-iyulda 2383-son bilan ro‘yxatga olingan Qimmatli qog‘ozlar bozorida axborotni taqdim qilish va e‘lon qilish qoidalari, “Kapitalbank” ATB (keyingi o‘rinlarda – “bank”) Ustavi va Korporativ boshqaruv kodeksiga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Nizom bank axborot siyosatining asosiy tamoyillarini, aksiyadorlar, potensial investorlar, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilariga oshkor etilishi lozim bo‘lgan axborotlar va xujjatlar ro‘yxatini belgilaydi, shuningdek ushbu axborotni taqdim qilish tartibini o‘rnatadi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalanilgan:

qo‘shimcha axborot – bankning investitsion jozibadorligini oshirishga ko‘maklashuvchi axborot bo‘lib, bank o‘z tashabbusiga ko‘ra uni, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan ma‘lumotlar bilan bir qatorda oshkor etish majburiyatini qo‘shimcha ravishda o‘z zimmasiga olishi mumkin;

manfaatdor shaxslar – bank aksiyadorlari, bankning potensial investorlari, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari;

axborot – taqdim qilish shaklidan qat‘iy nazar ma‘lumotlar (xabarlar);

axborot siyosati – asos soluvchi tamoyillar va taomillar majmuasi bo‘lib, ular manfaatdor shaxslarning chuqur o‘ylangan o‘z investitsion va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun kerakli axborotni olish huquqlariga rioya qilish maqsadida, shuningdek bankning axborot ochiqligi va shaffofligini oshirish orqali uning ijobiy imijini shakllantirish maqsadida bank to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish chora-tadbirlarining asosi hisoblanadi.

xabar qilish – manfaatdor shaxslarga, ularning so‘roviga, talabiga yoki ko‘rsatilgan axborotni olish yuzasidan bildirgan boshqa shakldagi xohishiga binoan bank faoliyati to‘g‘risidagi ochiq axborotni ma‘lum qilish;

maxfiy axborot – istalgan tUSDagi ma‘lumotlar, shu jumladan shaxsiy ma‘lumotlarni, bank yoki tijorat sirini, shuningdek uchinchi shaxslar qonuniy ravishda erkin foydalana olmaydigan maxfiy axborotlarni tashkil qiluvchi ma‘lumotlar. Axborotlarni bank yoki tijorat siri toifasiga kiritish, ulardan foydalanish huquqini belgilash tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Tijorat siri to‘g‘risida”gi va “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi;

oshkor etilishi shart bo‘lgan axborot – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq oshkor etilishi shart bo‘lgan axborotlar;

ochiq axborot – istalgan tUSDagi hamma uchun ochiq axborotlar yoki avvalroq oshkor etilgan va endilikda hamma uchun ochiq hisoblanuvchi axborotlar;

muhim axborot – e‘lon qilinganidan keyin bankning aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarining bozor qiymatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan axborotlar;

axborotning oshkor etilishi – axborotdan foydalanish imkoniyatini barcha manfaatdor shaxslar uchun, ularning ushbu axborotning topilishi va olinishini kafolatlovchi tartib!taomilga muvofiq qaysi maqsadda olishlaridan qat’iy nazar ta’minlash;

oshkor etilgan axborot – uni oshkor etish harakatlari olib borilgan axborot.

II. MAQSADLAR VA VAZIFALAR

4. Axborot siyosatining maqsadi manfaatdor shaxslarning o’z investitsion va boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari uchun bank va uning faoliyati to’g’risidagi ishonchli ma’lumotga bo’lgan axborot talablarini qondirish yo’li bilan bank faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash hisoblanadi.

5. Nizomning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

bank axborot siyosatining asosiy tamoyillarini belgilash;

barcha manfaatdor shaxslarga bank to’g’risidagi xolis, ishonchli va bir-biriga zid bo’lmagan axborotlarning o’z vaqtida oshkor etilishini ta’minlash;

barcha manfaatdor shaxslarga bank to’g’risidagi axborotni yetkazish qoidalari va tartibini belgilash;

axborot almashuvining tegishli talablariga, cheklovlariga va o’rnatilgan tartibiga bank boshqaruv organlari va/yoki xodimlarining qo’shimcha e’tiborini tortish;

bankning axborot xavfsizligini va maxfiy axborotning but saqlanishini ta’minlash;

bankning axborot ochiqligi va shaffofligini oshirish hisobiga bankning investitsion jozibadorligini o’stirishga ko’maklashuvchi qo’shimcha axborotni oshkor etish tamoyillarini o’rnatish.

III. AXBOROT SIYOSATINING ASOSIY TAMOIYILLARI

6. Bank axborot siyosatining asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

muntazamlilik (izchillik) – bank to’g’risidagi axborotning manfaatdor shaxslarga bank tomonidan muntazam va bosqichma-bosqich (tizimli) ravishda taqdim qilinishi;

tezkorlik – manfaatdor shaxslarni bankning moliyaviy-xo’jalik faoliyatiga ta’sir qiluvchi, shuningdek ularning manfaatlariga daxldor muhim hodisalar va faktlar to’g’risida eng qisqa muddatlarda xabardor qilish. Xususan, ushbu tamoyilga bank faoliyati va uning qimmatli qog’ozlarining qiymati haqidagi noto’g’ri tasavvurni shakllantiruvchi mish-mish gaplar va yolg’on ma’lumotlarga nisbatan bankning munosabati haqida majburiy xabar qilish kiradi;

obyektivlik – bank barcha manfaatdor shaxslarga haqqoniy axborotlarni, o’zi haqidagi salbiy axborotlarni oshkor etishdan bo’yin tovlamagan holda, bank va uning faoliyati natijalari haqida to’liq tasavvur shakllanishiga imkon beruvchi hajmda taqdim qiladi;

teng huquqlilik – bank O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bank mahalliy hujjatlarida o’rnatilgan me’yorlar va talablarni hisobga olgan holda, bank to’g’risidagi axborotni olish va unga ruhsat berishda barcha manfaatdor shaxslarning teng huquqli bo’lishini ta’minlaydi;

joizlilik – bank o’z faoliyati to’g’risidagi axborotni tarqatishda manfaatdor shaxslarning oshkor etilayotgan axborotdan erkin, bemalol va tanlanmasdan foydalanish huquqini ta’minlovchi kanallar va usullardan foydalanadi;

oqilonalik – bankning ochiqligi va uning tijorat manfaatlarini himoya qilish o’rtasidagi oqilona muvozanatga amal qilish;

muvozanatlilik – bankning ochiqligi va shaffofligi hamda uning tijorat manfaatlarini ta'minlash o'rtasidagi oqilona muvozanatga rioya qilish. Buning majburiy shartlariga quyidagilar kiradi:

maxfiy axborotni himoya qilish;

qonun hujjatlari va bank mahalliy hujjatlarida belgilangan insayderlik axborotlarni tarqatish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;

himoyalanganlik – maxfiy axborot hisoblanuvchi axborotni qonunchilikda ruhsat berilgan himoya qilish usullari va vositalaridan foydalanish;

foydalana olishlik – manfaatdor shaxslarga oshkor etilishi lozim bo'lgan axborot o'zbek va rus tillarida oshkor etiladi, zarur hollarda esa, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar, shu jumladan chet ellik investorlar uchun qulay o'zga tillarda ham oshkor etilishi mumkin.

IV. AXBOROTNI TARQATISHDA QO'LLANADIGAN VOSITALAR

7. Bank tomonidan axborotni tarqatishda, uni tarqatishning u yoki bu usulini qo'llashdan qat'iy nazar, quyidagi kommunikatsiya vositalaridan, ularni o'z ichiga olgan, biroq ular bilan cheklanmagan holda foydalanish mumkin:

audiovizual tashuvchilar: videoroliklar, korporativ videofilmlar, teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlardagi chiqishlar yoki intervyular, slaydlar va ham bank ichida, ham undan tashqarida o'tkaziladigan anjumanlar, kengashlar va boshqa tadbirlarda ko'z bilan ko'rishga mo'ljallangan boshqa vositalar – ularni o'z ichiga olgan, biroq ular bilan cheklanmagan holda;

mutlaqo barcha reklama tashuvchilar orqali tarqatiladigan bank korporativ reklamasi;

ham ichki, ham tashqi maqsadlarda tayyorlangan yozma hujjat yoki material: press-relizlar, matbuot xabarlari, bank risolalari, xodimlar uchun tayyorlangan axborot materiallari va jurnallar, ommaviy axborot vositalarida (keyingi o'rinlarda - "OAV") berilgan e'lonlar – ularni o'z ichiga olgan, biroq ular bilan cheklanmagan holda;

og'zaki xabar: izohlar, intervyu, matbuot anjumanlari, ichki taqdimotlar yoki ma'ruzalar, turli yo'nalishlardagi ommaviy tadbirlardagi chiqishlar – ularni o'z ichiga olgan, biroq ular bilan cheklanmagan holda;

elektron materiallar: elektron pochta, "Internet" axborot-telekommunikatsiya tarmog'i resurslari, bankning korporativ veb-sayti, shu jumladan uning ichki korporativ tarmoq resurslari – ularni o'z ichiga olgan, biroq ular bilan cheklanmagan holda.

V. AXBOROTNI OSHKOR ETISH VA XABAR QILISH SHAKLLARI VA USULLARI

8. Bank faoliyati to'g'risida tarqatilayotgan axborotlar uch guruhga bo'linadi:

oshkor etilishi shart bo'lgan axborotlar;

qo'shimcha axborotlar;

ochiq axborotlar.

9. Bank oshkor etilishi shart bo'lgan axborotlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan hajmlarda, muddatlarda va usullarda ochib beradi.

10. Bank quyidagi axborotlarni majburiy ravishda oshkor etadi:

bank faoliyatining predmeti va maqsadlari;

bank ustavi, shu jumladan unga kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar, tasdiqlangan biznes-reja;

bankni rivojlantirish strategiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

bankning tashkiliy tuzilmasi, uning tuzilmaviy bo‘linmalari, filiallari, sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarining nomlari, ularning telefon raqamlari, manzillari (pochta va elektron), ularning ishlash tartibi haqidagi ma’lumotlar;

bank rahbarlari to‘g‘risidagi ma’lumot beruvchi axborot;

bo‘sh ish o‘rinlari, ishga qabul qilish shartlari va nomzodlarga qo‘yiladigan talablar haqidagi ma’lumotlar;

bank yoki uning boshqaruv organlari tomonidan tashkil qilingan kollegial va kengash organlar (qo‘mitalar va boshqalar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

bankning bog‘langan (affillangan) shaxslari ro‘yxati;

bankning korporativ boshqaruv masalalariga oid ichki hujjatlari, shu jumladan Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan korporativ boshqaruv kodeksi;

O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan oshkor etilishi lozim bo‘lgan, bank faoliyatidagi muhim faktlar;

aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida qabul qilingan qarorlar bo‘yicha ovoz berish yakunlari (mazkur qarorlar qabul qilingan sanadan e‘tiboran o‘ttiz kun ichida e‘lon qilinadi);

aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi ma’lumotlar, o‘tkazish sanasi, vaqti va joyi, kun tartibi;

qimmatli qog‘ozlarni emissiya qilish prospektlari, shuningdek qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq oshkor etilishi lozim bo‘lgan bankning choraklik va yillik hisobotlari;

bank tomonidan o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlar (majlislar, kengashlar, uchrashuvlar, matbuot anjumanlari, seminarlar va brifinglar, “davra suhbatlari”, rasmiy tashriflar), press-relizlar va kundalik faoliyat haqidagi boshqa axborotlar;

bankda ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxati va ular haqidagi ma’lumotlar;

bank va uning filiallari tomonidan tovarlar yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmat ko‘rsatish) yuzasidan o‘tkaziladigan ochiq tanlovlar (tenderlar) va kimoshdi savdolari haqidagi ma’lumotlar;

bankning moliyaviy-xo‘jalik holatini va uning rivojlanish dinamikasini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar to‘g‘risidagi dolzarb ma’lumotlar, bank faoliyati haqidagi axborot tusidagi tahliliy obzorlar;

oxirgi uch yilda hisoblangan va to‘langan dividendlar haqidagi ma’lumotlar, shu jumladan qarzdorlik haqidagi ma’lumotlar, aksiyadorlarning dividend olishi uchun bog‘lanish ma’lumotlari va boshqalar;

bir yillik moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik tashkilotining xulosasi;

bank tomonidan aksiyalarning xarid qilinishi haqidagi axborot;

boshqa shaxslar bank korporativ veb-saytida mavjud bo‘lgan axborot materiallaridan foydalanganda ushbu saytga havolani ko‘rsatish shartligi haqidagi talab;

“Kapitalbank” ATB Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga amal qilish majburiyatini qabul qilish va unga rioya qilish to‘g‘risidagi axborot;

yoza va/yoki elektron so‘rovlarni yuborish uchun bank va uning tuzilmaviy bo‘linmalarining (filiallar, Amaliyot boshqarmasi, SOO, SBU) pochta va yuridik manzillari, shuningdek bank rekvizitlari;

bank Kuzatuv kengashi a‘zolari, bank Boshqaruv raisi va a‘zolari haqidagi axborot;

amaldagi qonun hujjatlari, bank Ustavi va mahalliy hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa axborotlar.

11. Bankning ixtiyoriga ko'ra uning korporativ veb-saytida quyidagi qo'shimcha axborotlar oshkor etilishi mumkin:

bank Boshqaruvi faoliyati va korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini baholash natijalari;

zaruratga ko'ra, sof foydaning ma'lum qismini bankni rivojlantirish ehtiyojlariga yo'naltirish hajmlarini iqtisodiy asoslash va tushuntirish;

mavjud bo'lganda aksiya kotirovkalariga oid ma'lumotlar, shuningdek fundamental va texnik tahlil natijalari, mutaxassislar, ekspertlar va maslahatchilarning sharhlari va prognozlari;

mavjud bo'lganda biznes turlari bo'yicha bank kapitali qiymati va o'rtacha tortirilgan bank kapitali qiymati – ushbu ko'rsatkichlarning miqdorini asoslagan holda;

xayriya (homiylilik) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) shartlari va ular bo'yicha qaror qabul qilish tartibi, shuningdek haqiqatda ko'rsatilgan (olingan) xayriya (homiylilik) yoki beg'araz yordamlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

sof foydani taxmin qilinayotgan taqsimoti, dividend miqdori, ularning bankda qabul qilingan dividend siyosatiga muvofiqligi bahosini asoslash.

Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruviga mukofotlar va kompensatsiyalar miqdori haqidagi axborot aksiyadorlar umumiy yig'ilishida oshkor etiladi va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasiga kiritiladi.

12. Axborotning oshkor etilishi bank tomonidan axborotni quyidagi usullar yordamida tarqatish orqali amalga oshiriladi:

elektron OAVda joylashtirish;

“Internet” axborot-telekommunikatsiya tarmog'idagi www.kapitalbank.uz manzildagi bank korporativ veb-saytiga joylashtirish;

davriy bosma nashrlarda e'lon qilish;

manfaatdor shaxslar bilan axborot seminarlari va boshqa uchrashuvlarni (shu jumladan, teleanjumanlar, veb-translyatsiyalar, veb-kastalar shaklida) o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, bank Ustavi va mahalliy hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda aksiyadorlarga axborotdan (hujjatlardan) foydalanish huquqini taqdim qilish va ularning talabiga ko'ra hujjatning nusxalarini berish;

Nizomda nazarda tutilgan kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, bank Ustavi, bank mahalliy hujjatlari hamda bankning vakolatli boshqaruv organlarining qarorlarida nazarda tutilgan boshqa usullar.

13. Bank Nizom tamoyillariga muvofiq, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali OAV vakillari bilan o'zaro aloqalar olib boradi:

bank hayotidagi muhim voqealarga oid press-relizlarni tarqatish;

bankka kelgan OAV vakillarining axborot so'rovlariga tezkor va bilimlarga asoslangan javob berish;

OAV jalb qilinadigan anjumanlar, seminarlar va boshqa ommaviy tadbirlarda qatnashish;

bank saytining tegishli bo'limlarini muntazam yangilash va qo'llab-quvvatlash.

14. OAVda ko'zda tutilayotgan chiqishlar haqidagi ma'lumotlar, OAV bilan birgalikda oshkor etiladigan axborotning tarkibi Nizom, shuningdek bank vakolatli boshqaruv organlarining qarorlari asosida belgilanadi.

VI. AXBOROTNING IXTIYORIY RAVISHDA OSHKOR ETILISHI

15. Bank axborotni majburiy tarzda oshkor etish bilan bir qatorda, bankning fikriga ko'ra uning ijobiy imijini shakllantirishga yordam berishi hamda uning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari qiymatiga obyektiv ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, o'z faoliyati haqidagi axborotni ixtiyoriy ravishda oshkor etishi mumkin.

16. Bank quyidagi axborotlarni ixtiyoriy ravishda oshkor etishi mumkin:

bank rahbariyatining bank moliyaviy ahvoli va moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi tahlili va sharhlari;

bank faoliyati ustuvor yo'nalishlarining o'zgarishi;

faoliyat natijalari to'g'risidagi qo'shimcha choraklik hisobotlar;

vakolatli shaxslarning belgilangan tartibda avvalroq oshkor etilgan bank haqidagi axborot bo'yicha bergan sharhlari;

bank vakillarining bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq taqdimotlari va chiqishlari;

bank nuqtayi nazaridan muhim hisoblanuvchi har qanday boshqa ma'lumotlar.

17. Qo'shimcha axborotlarni oshkor etish zarurligi haqidagi qaror bank Boshqaruvi tomonidan, uning manfaatdor shaxslar tomonidan investitsion va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhimligidan kelib chiqib, bank Kuzatuv kengashining roziligi bilan qabul qilinadi.

18. Bank investorlar va tahlilchilar bilan o'zaro hamkorlik doirasida axborot ochiqligini oshirishga yo'naltirilgan qator chora-tadbirlarni, jumladan quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

bank faoliyatining barcha muhim natijalari bo'yicha press-relizlarni tarqatish;

investorlar va tahlilchilar uchun, shu jumladan bank vakolatli shaxslarining xizmat safarlari paytida tashkil qilingan uchrashuvlar va taqdimotlar;

qo'ng'iroqli anjumanlar;

OAVda e'lon qilish.

19. Bank Kuzatuv kengashining daslabki rozilgisiz, bank tahlilchilarning o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini uchinchi shaxslarga tarqatmaydi va ularni "Internet" axborot-telekommunikatsiya tarmog'idagi bank saytiga joylashtirmaydi.

VII. BANK TOMONIDAN OSHKOR ETILAYOTGAN AXBOROTGA TAALLUQLI SHARHLAR

20. Faqat bank vakolatlagan shaxslar bank nomidan avvalroq ochilgan axborot yuzasidan sharhlarni berishi mumkin.

21. Bankning Kuzatuv kengashi a'zolari bank Kuzatuv kengashi majlislarida ko'rib chiqilayotgan masalalar, va bank faoliyatidagi boshqa hodisalar yuzasidan sharhlarni faqat o'z nomidan va faqat ushbu axborot o'rnatilgan tartibga muvofiq ochilganidan keyin berishi mumkin. Bunda ushbu cheklov hamma uchun ochiq bo'lgan har qanday tusdagi axborotga yoki bank to'g'risida avvalroq ochilgan axborotga nisbatan qo'llanilmaydi.

Bank Boshqaruv raisi yoki uning o'rinbosarlari o'z nomidan va bank Boshqaruvi nomidan sharh berishi mumkin.

23. Mish-mishlar va taxminlar yuzasidan sharh berish bank axborot siyosatining predmetiga kirmaydi. Bank vakolatli shaxslari mish-mishlar va taxminlarga taalluqli barcha so'rovlarga "axborot siyosati mish-mishlar va taxminlarni sharhlamaslikka ruhsat beradi" deb javob berish huquqiga ega.

24. Yuqorida ko‘rsatilgan, mish-mishlar va taxminlarni sharhlashdan bosh tortish huquqi bankning vakolatli shaxslariga bankka tegishli yolg‘on axborotlarni rad qilish choralarini ko‘rishga, ayniqsa agar uning tarqatilishi bankka va/yoki bank aksiyadorlariga ziyon keltirsa, to‘sqinlik qilmaydi.

VIII. BANK BOSHQARUV ORGANLARI A’ZOLARI, MANSABDOR SHAXSLARI, XODIMLARI BILAN MANFAATDOR SHAXSLAR O‘RTASIDA AXBOROT ALMASHISH TARTIBI

25. Manfaaddor shaxslar bilan bank boshqaruv organlarining a‘zolari, mansabdor shaxslari, xodimlari o‘rtasida axborot almashish uchun bank mas‘ul kotibni tayinlaydi yoki bu vazifalarni axborot almashuvini amalga oshiruvchi shaxs zimmasiga yuklaydi.

26. Manfaaddor shaxslarning ushbu Nizomda nazarda tutilgan axborotlarni taqdim qilish haqidagi yozma (elektron) talabiga asosan, bankning mas‘ul xodimi barcha kerakli ma‘lumotlarni bir hafta ichida, agar qonun hujjatlarida boshqa muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, elektron ko‘rinishda taqdim qiladi.

27. Hujjatlarning nusxalarini taqdim etish zarur bo‘lgan hollarda, manfaaddor shaxs hujjatlar nusxasini tayyorlashga ketadigan xarajatlar va pochta orqali hujjatlarni jo‘natish bilan bog‘liq xarajatlar qiymatidan oshib ketmagan miqdorda to‘lov amalga oshiradi.

28. Aksiyadorlar, qonun bilan himoya qilinadigan xizmat, tijorat yoki boshqa sirlarni tashkil qiluvchi bank yoki uning faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni oshkor qilishga haqli emas.

IX. AXBOROT SIYOSATIGA RIOYA ETISH USTIDAN NAZORATNI TA’MINLASH CHORALARI

29. Bank va uning faoliyati to‘g‘risida oshkor etilayotgan axborotning to‘liqligi va ishonchliligi yuzasidan javobgarlik bank Boshqaruvi yoki bank Boshqaruv raisi zimmasiga, ularning vakolatiga muvofiq yuklanadi.

30. Bank Kuzatuv kengashi har chorakda bank Boshqaruvining ushbu Nizom talablarining bajarilishi haqidagi hisobotini tinglaydi.

31. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, shuningdek Nizom hamda bank axborotining taqdim qilinishi va himoya qilinishini ta‘minlash bilan bog‘liq boshqa mahalliy hujjatlarning talablarining buzilishi oqibatida bankka va/yoki uning aksiyadorlariga zarar yetkazilganda, buning uchun aybdor shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida o‘rnatilgan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin.

X. YAKUNIY QOIDALAR

32. Bankning axborot siyosati masalalariga bevosita yoki bilvosita daxldor har qanday mahalliy hujjatlari ushbu Nizomga zid kelishi mumkin emas.

33. Nizom, shuningdek unga kiritilgan har qanday o‘zgartishlar va qo‘shimchalar bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanganidan keyin kuchga kiradi. Nizomning yangi tahriri kuchga kirganda, Nizomning avvalgi amaldagi tahriri o‘z kuchini yo‘qotadi.

34. Agar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlaridagi o‘zgarishlar natijasida ushbu Nizomning ayrim moddalari ularga zid kelsa, bu moddalar o‘z kuchini yo‘qotadi, va bank Nizomga o‘zgartishlar kiritilgunga qadar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qiladi.

Kiritilgan:

Yuridik xizmat Departamenti direktori

V.V. Pachurin

Korporativ Maslahatchi

A.S. Xudayberganov

Kelishilgan:

Tavakkalchiliklarni boshqarish
departamenti direktori

T.V. Kan

Ichki audit departamenti
direktori v.b.

A.S. Kariyev